

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.I.88.01 – RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**NIZAMOV G‘IYOSHO‘JA ARIBJANOVICH**

**LOGISTIKA XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
QO‘LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH  
(O‘zbekiston temir yo‘llari AJ misolida)**

**08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Nizamov G‘iyosxo‘ja Aribjanovich**

Logistika xizmatlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni takomillashtirish  
(O‘zbekiston temir yo‘llari AJ misolida).....5

**Nizamov G‘iyosxo‘ja Aribjanovich**

Совершенствование применения цифровых технологий в логистических  
услугах (на примере АО «Узбекистан темир йуллари»)..... 24

**Nizamov Giyoskhuja Aribjanovich**

Improving the application of digital technologies in logistics services  
(using the example of Uzbek Railways JSC)..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.I.88.01 – RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**NIZAMOV G‘IYOSHO‘JA ARIBJANOVICH**

**LOGISTIKA XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
QO‘LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH  
(O‘zbekiston temir yo‘llari AJ misolida)**

**08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/Iqt.2365 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda – o'zbek, rus va ingliz (rezyume) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining web-sahifasida ([www.rgsbm.uz](http://www.rgsbm.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) e'lon qilingan.

**Ilmiy rahbar:** **A.T.Kenjabayev**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:** **S.S.G'ulomov**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

**Z.U.Berdinazarov**  
Iqtisodiyot fanlari doktori(DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/04.07.2023.I.88.01 – raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "14" NOYABR soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel: (+998 71) 239-03-65; faks: (+998 71) 239-03-65; e-mail: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (UDK: 658.7.004 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel: (+99871) 239-03-65; faks: (+99871) 239-03-65; e-mail: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "05" 11 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "05" 11 dagi 13 –raqamli reyestr bayonnomasi).



**D.X. Suyunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**T.U. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi kengash ilmiy  
kotibi, i.f.n., professor

**A.T. Kenjabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda yuk tashishda logistika jarayonlari muhim ahamiyat kasb etyapti. Dunyo bo'yicha raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, unda AQSh, Rossiya Federatsiyasi qatorida O'rta Osiyo, Afrika, Yevropa va Tinch okean mamlakatlari ham shiddat bilan rivojlanib bormoqda. AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Xitoy va Hindiston davlatlarining umumiy temir yo'l uzunligini olsak, 600 ming kilometrni tashkil etadi. Bu anchagina katta ko'rsatkich bo'lib, temir yo'l uzunligiga qarab, logistik jarayonlarni bajarilish samaradorligi yuqori bo'ladi. Ekspertlarning hisobi bo'yicha dunyo bo'ylab logistika bozorlarini pul qiymatidagi aylanmasi 2024-yil 6,03 trln. dollarni tashkil qilgan. 2029-yilga borib, bu aylanma 7,54 trln. dollarni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. O'rtacha yillik o'sish 4,57 foizni tashkil qilmoqda<sup>1</sup>. Ayrim raqamli iqtisodiyotga o'tgan davlatlarni misol qilsak, Xitoy temir yo'l tizimida raqamlashtirish texnologiyasiga o'tish orqali ichki yalpi maxsulot aylanmasi 70 foizga oshgan, raqamli iqtisodiyot hajmi 4,4 trln dollarni tashkil qilgan, 200 mln.dan ortiq odamlar raqamli iqtisodiyot sohasida band. Hindistonda esa, IT-sohadagi bir yillik daromad 180 mlrd. dollarni tashkil etishi tahsinga loyiq. Bu davlatlar qatorida yana AQSh, Yaponiya, Qozog'iston kabi mamlakatlarni ham ko'rsatishimiz mumkin.

Raqamlashtirishga o'tilganda uni o'ziga xos yutuq va kamchiliklari mavjud bo'lib, temir yo'l tizimini raqamlashtirishda juda katta moliyaviy resurs talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda Respublikaning ba'zi hududlarini internet bilan to'liq ta'minlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Aqlli tizimlar omborlarni boshqarishi, yuk tashiydigan haydovchilarni kuzatishi, tashish jarayonini monitoring qila bilishi, tashish uchun ketadigan vaqtni qisqartirish va logistika xizmatlar uchun xarajatlarni kamaytirish raqamli texnologiyalarga o'tishdagi asosiy yutuqlar hisoblanadi. Raqamlashtirishning kamchiliklariga kelsak ularga moliyalashtirishning yetarli darajada emasligi, zarur infratuzilmaning yo'qligi, avtomatlashtirishning past ko'rsatkichi, ishchilarning malaka darajasi yetishmasligi asosiy sabablardandir<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasida raqamlashtirish sohasiga alohida e'tibor qaratilib, statistik ma'lumotlariga ko'ra 2017–2021-yillar raqamlashtirishni rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'lar 11,8 trln. so'm (1 mlrd. dollardan ortiqroq) ni tashkil qilgan. 2023-yil oktyabr oyida "O'zbekiston temir yo'llari" AJda IT-markazi tashkil etildi.

Ushbu IT-markazining asosiy vazifalari temir yo'l tizimidagi yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi dasturlar va platformalarni yaratish, yuk

---

<sup>1</sup>Анализ размера и доли рынка грузовых и логистических перевозок – тенденции роста и прогнозы до 2029 года <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/freight-logistics-market-study>. <https://ru-bezh.ru/journal-39/49106-tsifrovizatsiya-v-mezhdunarodnom-masshtabe> Вобля И.Н., Марсева Т.Г., Петрич А.Р. Проблемы развития логистики в новых реалиях/ Вестник Алтайской академии экономики и права №11 часть 2 – стр.216-220, 2022 год. <https://vael.ru/ru/article/view?id=2553>.

<sup>2</sup>Цифровизация логистики: тренды и перспективы. <https://globalcio.ru/news/34064/>. <https://pro.rbc.ru/demo/6142ef049a79477ba893fe4ahttps://petition.gov.uz/uz/news/view/305>.

jo‘natish va ularni nazorat qilish, to‘lov jarayonlarini boshqarish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish belgilangan. Hozirgi kunda temir yo‘l tizimidagi depolar miqyosida 70 foiz ishini nazorat qiladigan “Smart (aqlli) depo” dasturi ishga tushirildi. Shu bilan bir qatorda stansiyalar ish jarayolarining 30 foizi raqamlashtirilgan bo‘lib, yuk tashish ishlarini nazorat qilish tizimi takomillashtirilmogda. Temir yo‘l tizimidagi hujjatlar aylanmasi elektron ko‘rinishga o‘tkazilgan bo‘lib, pattalar va blank hujjatlarini elektron shaklga o‘tkazish masalalari yuzasidan ishlar olib borilmoqda<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 sonli ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-sonli “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-329 sonli “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transport sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi<sup>4</sup>.

**Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Mavzuni o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqot jarayonida logistika tizimiga raqamlashtirishni joriy etgan xorijlik va mahalliy olimlarning tadqiqotlari o‘rganildi.

Jumladan, xorijlik olimlar I.D. Bekmurzayev, X.D. Yazxanova, A.V. Ksheleva, V.G. Budanov, V.Yu. Rummyantsev, G.G. Golovenchik, Ye.S. Prokofeva, M.S. Sandeep, M.N. Ravishankar, N.A. Klicheva, S.A. Zamchalov, R. Bukht va R. Heekslar tomonidan logistika sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yuk tashish jarayonlarini tezkor amalga oshirish, vagon va transport vositalarini real vaqt rejimida kuzatish, hisob-kitoblarni masofadan turib bajarish, shuningdek, telekommunikatsiya vositalari orqali masofaviy muloqot va muzokaralar olib borish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar<sup>5</sup>.

---

<sup>3</sup>Цифровизация важных драйвер развития нового Узбекистана 20.04.2022 г. <https://strategy.uz/index.php?news=1518&lang=ru>; Опыт зарубежных стран в управлении транспортно-логистической системой. Н.З.Арифжанова – Ташкент 2022.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-329 sonli qarori.

<sup>5</sup> Кlicheva H.A., Прокофьева E.C. Эффективность внедрения цифровых моделей в области грузовых перевозок/ Российский университет транспорта. 2020 год, г. Москва; Головенчик Г. Г. Цифровизация Белорусской экономики в современных условиях глобализации / Г.Г.Головенчик. – Минск: Изд. Центр БГУ, 2019 – 257 с.; Бекмурзаев И.Д., Замчалов С.А. Цифровизация как основное направление инновационного развития логистики” ГМУ, 2022. – DOI 10.47576/2712-7516\_2022\_6\_1\_6.; Кашелева А.В., Буданов В.Г., Румянцев В.Ю. Введение в цифровую экономику. – Москва, 2017. – 28 с.; Sandeep M. S., Ravishankar M. N. “Sociocultural transitions and developmental impacts in the digital economy of impact sourcing”, Information systems journal /Volume 28, Issue 3/, India – 2017. r. 563-586; Bukht R., Heeks R. Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy/International Organisations Research Journal

Shu bilan bir qatorda, o‘zbekistonlik olimlardan A.O. Ahmedov, A.T. Kenjabayev, D.X. Suyunov, D. Aliyeva, E. Embang, J.S. Fayzullayev, M.X. Abdullaev, N.Z. Arifjanova, Sh.A. Karimova, Sh. Faxriddinova, T.U. Qodirov, N.S. Xasanova va boshqalar raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari va uni amaliyotda tatbiq etishning muhim jihatlari ochib berish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sun’iy intellektni qo‘llashga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borganlar<sup>6</sup>.

**Dissertatsiyasi mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** temir yo‘l logistika xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

logistika xizmatlarini raqamlashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish;

bekat logistika xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning zarurligi asoslash;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bekat logistika xizmatlarining raqamlashuvi holatiga baho berish;

bekat logistika xizmatlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganish;

raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida bekatlardagi logistika tizimida, mijozlarga masofaviy xizmat ko‘rsatish usullarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

bekat xizmatlarida masofaviy xizmat turlarini kengaytirish istiqbollari ko‘rib chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi bekatlarning yuk tashish faoliyati tanlab olingan.

---

13(2):143-172, Manchester – 2019; Язханова Х.Д., Управление логистики в условиях цифровизации/ Туркменский Государственный институт экономики и управления, –Ашхабад, 2022 г.

<sup>6</sup> Arifjanova N.Z. O‘zbekistonda yuklarni konteynerlarda tashishni rivojlantirishda innovatsion yo‘nalishi// Toshkent transport universiteti, 2022-yil.; Suyunov D.X. Korporativ boshqaruvning zamonaviy xalqaro standartlari va usullarini joriy qilish // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali (Elektron jurnal) 2021-yil, №3-son, –B–1–13; Kenjabayev A.T., Abdullayev M.X. O‘zbekiston Respublikasida xavfli geologik jarayonlarni kuzatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bosqichlari va istiqbollar // Geologiya va mineral resurslar. Геология и минеральные ресурсы. Geology and mineral resources. Научно-практический журнал. 5’2021 god. [https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2022/iss1/22/.](https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2022/iss1/22/), Alieva D., Embang E., Karimova Sh.A., Faxriddinova Sh.//The International Online Conference Proceedings on “Digital Economy: Impacts, Challenges and Prospects”, 23 rd of April 2020 Tashkent: Management Development Institute of Singapore in Tashkent, 2020 –274 pages; Fayzullayev J.S. Zamonaviy transport logistika tizimining boshqaruv samaradorligini oshirish. Toshkent 2017.; Ахмедов А.О. “Цифровизация логистики: от Бигдата к интернету вещей. Бухарский государственный университет, 2024 год.; Кодиров Т.У. Цифровые технологии как фактор повышения конкурентоспособности транспортных услуг // Журнал Проблемы науки № 5 (64), 2021. Москва 2021. С.43–45.

**Tadqiqotning predmetini** logistika xizmatlarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish va takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, mantiqiy tahlil, analiz va sintez, statistik guruhlash, algoritmik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yuk bekatlarida joylashgan yuk-tijorat hujjatlarini rasmiylashtirish bo'limlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni bekat to'lov tizimiga tatbiq etish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

yuk bekatlarida ushbu mexanizmni samarali amalga oshirish maqsadida xizmat ko'rsatish to'lov platformasi tizimi doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning hisob-kitob jarayonlarini nazorat qilishga mo'ljallangan boshqaruv tizimi ishlab chiqilgan;

yuk vagonlarini bekatlarda ortiqcha turib qolish vaqtini hisoblash orqali yo'qotilayotgan iqtisodiy samarani aniqlash va uni amaliyotda qo'llash usullari taklif etilgan;

pul tushumi nazoratini ichki blokcheyn texnologiyalar yordamida masofadan turib nazorat qilish usuli taklif qilinib, to'lovlarni aniqlik darajasini ta'minlash asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalar asosida "O'zbekiston temir yo'llari" Ajda logistika xizmatlarini rivojlantirishning algoritmik modeli ishlab chiqilib, logistika xizmatlarini samarali tashkil etish va optimal boshqarishga xizmat qiladi;

temir yo'l xizmatlarini raqamlashtirish va sohada samaradorlikni oshirish uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llari taklif etilgan;

logistika xizmatida raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda yuk vagonlarni bekatlarda ortiqcha turib qolishni aniqlash takliflari ishlab chiqilgan;

logistika xizmatida raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan xizmatlarni yaratish, ularning mobilligini oshirish hamda masofadan va elektron tizimlardan foydalanish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** amalga oshirilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi, amaliyotga joriy etilganligi va ularning natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u O'zbekiston transport sohasi tarmoqlarida raqamlashtirish jarayonini amalga oshirishda, logistika mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston temir yo'llari logistika xizmatida yangi texnologiyalarni joriy etish orqali raqamli iqtisodiyotga o'tish va temir yo'l tizimida ish samaradorligini oshirish, soha

kadrlarini tayyorlash va malakasingi oshirishda o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ta'lim kontentlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Logistika xizmatlarida raqamli texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy ish natijalari asosida:

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ tizimidagi yuk bekatlarida joylashgan yuk-tijorat hujjatlarini rasmiylashtirish bo'limlarida (keying o'rinda g'aznalarda) to'lov mexanizmlarni amalga oshirish tizimi qabul qilingan (“O'zbekiston temir yo'llari” AJ tomonidan 2024-yil 23-maydagi 03/1980-24-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif amaliyotga qabul qilinishi natijasida temir yo'l yuk bekat to'lov tizimiga raqamli iqtisodiyot tamoyillari tatbiq qilinib, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshirilishi imkoniyatini yaratgan;

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ tizimidagi yuk bekatlarida joylashgan yuk tijorat hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha g'azna bo'limlaridagi ish jarayonida jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish to'lov platformasining bo'g'imlarini takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan (“O'zbekiston temir yo'llari” AJ tizimida 2024-yil 23-maydagi 03/1980–24-sonli ma'lumotnomasi). Temir yo'l yuk bekatlaridagi g'azna bo'limidagi platformaning bo'g'imlanin joriy etish mablag'lar qoldig'ini nazorat qilish imkoniyati yaratilgan;

dam olish kunlari (ish kunlaridan tashqari) vagonlarning bekatlarda ortiqcha turib qolish vaqtini hisoblashning matematik vositalar orqali yo'qotilayotgan pul qiymatini aniqlab, ishlab chiqarish jarayoniga qo'llash uchun solishtirma metodlar taklifi qabul qilingan (“O'zbekiston temir yo'llari” AJ tizimida 2024-yil 23-maydagi 03/1980–24-sonli ma'lumotnomasi). Yangi yo'nalishni joriy etgan holda bir oydagi harajatlar 30,2 % mablag'ni tejalishiga olib keldi;

temir yo'l yuk bekatlaridagi yuk-tijorat g'aznalarida pul tushumlarini boshqarma darajasida ichki blokcheyn texnologiyalari orqali masofadan turib nazorat qilish tizimi taklif etilgan. Shuningdek, to'lovlarni raqamlashtirish orqali faoliyatning shaffoflik darajasini oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan (“O'zbekiston temir yo'llari” AJ tizimida 2024-yil 23-maydagi 03/1980-24-sonli ma'lumotnomasi). Afzalligi shundaki, bu tizim jarayonlarda inson omili ta'sirini kamaytirib, butun bir tizimni to'lov tizimini raqamli texnologiya bilan bog'ladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy konferensiya, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ishlar, shundan 7 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda (5 ta maxalliy va 2 ta xorijiy nashrlarda), 3 ta xalqaro jurnallarda hamda 6 ta ma'ruza va tezislar respublika anjumanlari ilmiy to'plamlarida chop etilgan. Shuningdek, 1 ta mualliflik huquqi ham mavjud.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismidan, uchta bob, xulosaʼ foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan va ilovalardan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Dissertatsiyaning kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Logistika xizmatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirishda nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bekatlar logistika xizmatlarining raqamlashtirilish mazmuni va mohiyati va uning zarurligi, sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda xorijiy tajribalar yoritilgan.

Logistik xizmatlar – bu tovarlarni bir nuqtadan ikkinchisiga tashishni tashkil qilish boʻyicha vazifalar toʻplamidir. Bunday muammolarni hal qilish jarayonida xarajatlarni minimallashtirish va yuk tashish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan tadbirlar ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga, transport orqali tashish xarajatlarini kamaytirish va shunga mos ravishda tovar yoki mahsulot narxini pasaytirish uchun real imkoniyat mavjud. Logistika kompaniyasining asosiy maqsadi-natijalar imkoniyatlarini maksimal darajada kamaytiradigan transportning marshrut aloqasini qurish va mijozlarga eng qulay xizmatlarni taqdim etishdan iborat.

Bunday maqsadni yaratish uchun, logistikaga ixtisoslashgan tashkilot quyidagi vazifalarni bajarishi:

1. Yuklarni tashish uchun eng oqilona yoʻnalishni aniqlashi;
2. Yukning va buyurtmaning holatiga qarab yoʻl marshrutini ishlab chiqilishi;
3. Yuk ortish-tushirish ishlarini bajarish punktlarini va yuklarini vaqtincha saqlash joylarini tashkil etish;
4. Yukni “A” nuqtadan “B” nuqtagacha olib borish uchun ketadigan barcha xarajatlarini hisoblashi kerak.

Logistika sohasidagi xizmatlar korxonalar xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan.

Maksimal ijobiy natijalarga erishish uchun qanday turdagi logistika xizmatlarini koʻrsatish aniqlik kiritib olish zarur. Logistik xizmatlarini baʼzi joylarda raqamlashtirish holatlarini kiritish, baʼzi joylarga shart emasligi koʻrib chiqilishi kerak.

Integratsiyalashgan raqamli yechimlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- raqamli platformalarda saqlanadigan maʼlumotlar real vaqt rejimida axborotni taqdim etish va qoʻlda bajariladigan qogʻozbozlik jarayonlarni


avtomatlashtirilgan ekvivalentlar bilan almashtirish orqali butun ta'minot zanjiri tezligi hamda samaradorligini oshirishi mumkin;

- platforma iqtisodiyoti logistika xizmatlari uchun biznes modellarning yangi turlarini yaratishga imkon beradi. Chunki unda moddiy oqimlar haqidagi ma'lumotlar hamma uchun ochiq bo'lib, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan yetkazib berish oqimlarini yangi usullarda yaratishga imkon beradi.

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar iqtisodiyot va logistika jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Top 10 Supply Chain and Logistics Technology Trends in 2020 logistics technology trends"da Yevropa ekspertlari o'z maqolalarida ham fikrlarni berishgan bo'lib, ularning fikriga ko'ra logistik kompaniyalar tomonidan yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash rivojlanishdan ortda qolish uchun emas, balki logistika sohasida xizmatlarni tezlashtirgan holda mijozlarni o'zlariga jalb qilish va mijozlar ba'zasini yaratishdan iboratdir<sup>7</sup>.

Tashkilotda innovatsion logistikaning joriy etilishi hisob-kitoblarni amalga oshiradigan avtomatlashtirilgan va axborot tizimlarini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Logistika sohasida innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish korxonalar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot va xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning kuchli vositasiga aylanishi A.A. Chugarev va G.I. Shepelinlar tomonidan ta'kidlangan<sup>8</sup>.

Bu tizimlarni joriy qilish orqali Yevropa davlatlarini bog'lash uchun qisqa yo'li koridorlar ko'rib chiqiladi. Optimal marshrutlar bu koridorlarni o'tkazish qobiliyatini boshqarib, Yevropa umumiy strukturasi raqamlashtirilgan iqtisodiyot tizimi bilan birlashtirishga xizmat qiladi (1-rasm).



**1-rasm. 2024-yilda rivojlangan mamlakatlarda raqamlashtirish hisobiga temir yo'l rivojlanishining holati, (%)<sup>9</sup>**

<sup>7</sup>Future Supply Chain, Logistics, Supply Chain Companies, Supply Chain Management. <https://business.fiu.edu/academics/graduate/insights/posts/the-future-of-the-logistics-and-supply-chain-management-industry.html>.

<sup>8</sup>Chugreeva A.A., Shepelin G.I. "Logistikadagi innovatsion texnologiyalar mahalliy korxonalar samaradorligini oshirish omili sifatida" Haqiqiy tadqiqotlar 2020-yil 11-son (14), 50–53-betlar. URL: <https://apni.ru/article/912-innovationie-technologii-v-logistike-kak-fak>.


<sup>9</sup> Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish ko‘p jihatdan mintaqaviy xususiyatlarga bog‘liq. Transport infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish uchun qurilishga ajratiladigan hududlar hamda yer resurslaridan oqilona foydalanish zarur. Bunda hududiy landshaftlar va tabiiy resurslarni ham inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Germaniya temir yo‘llarida “Civity consulting” kompaniyasi magistral temir yo‘llarda poyezdlarni boshqarishni to‘liq avtomatlashtirishga o‘tishning iqtisodiy jihatlarini o‘rganmoqda. F.Ishoxe (Frank Ishoxe, “Civity” ) hisobotida simpozium taqdimoti mavjud bo‘lib, bu ishda, dastlabki natijalari yuqori avtomatlashtirilgan infratuzilma–magistral temir yo‘l tarmog‘ida o‘zini ijobiy ko‘rsatgani ta’kidlangan.

Germaniya temir yo‘llari uchun yuk tashish sohasida eng muhim – "Uchastka harakatini boshqaruvchi" kabi tizimlardan foydalangan holda uchastkalarda avtomobil harakatini kompleks boshqarish, ya’ni poyezdlar harakatini boshqarishni va avtomatlashtirishni, yaxlitlikni ta’minlaydigan quyi tizimlarni joriy etishdir.

Yevropa temir yo‘l transporti, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda davom etadi. Raqamlashtirish temir yo‘l transportini iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza transport turiga aylantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Yevropa ushbu o‘sish va muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish uchun mustahkam boshlang‘ich pozitsiyaga ega (2-rasm).



**2-rasm. Yevropaning yetakchi mamlakatlarida transport logistikasi sohasidagi 2024-yilda 2022-yilga nisbatan hujjatlarning raqamlashtirilganlik darajasi, foizlarda<sup>10</sup>**

AQSh temir yo‘l transportida harakatlanuvchi tarkib parklarining joylashuvi va holatini joriy hisobga olish hamda tezkor boshqaruvni amalga oshirish uchun deyarli barcha asosiy axborot tizimlari kuchli hisoblash majmualariga asoslangan bo‘lib, ular masofadan markazlashtirilgan qayta ishlashni ta’minlaydi.

<sup>10</sup> Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Deyarli barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlarda temir yo‘l transporti ishini takomillashtirishning muhim yo‘nalishi alohida temir yo‘l kompaniyalari va umuman mamlakat temir yo‘l tarmog‘i faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ilmiy asoslangan boshqaruv usullarini ishlab chiqishdir.

Dissertatsiyaning **“Logistika xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish holatining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida bekat logistika xizmatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish holati tahlili, zamonaviy innovatsiyalardan foydalanish amaliyoti, inson omilini qisqartirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan.

Logistika raqamli iqtisodiyotda o‘shishning asosiy dvigatellaridan biri bo‘lib, moliya tizimi, jismoniy obyektlar va insonlar oqimini birlashtiruvchi ta’minotni yetkazib beradigan intellektual harakatchan zanjir modelini yaratadi.

Bekatlardagi yuk xo‘jaligining asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- 1) Bekatlardagi yuk ortish rejasini bajarilganligini nazorat qilish;
- 2) Temir yo‘lning texnik xizmat punktiga moliyaviy tushum bo‘lganini nazorat qilish;
- 3) Tashiladigan yuklarni hujjatlarini rasmiylashtirish;
- 4) Belgilangan tartibda hisob-kitob va hisobotni tayyorlash;
- 5) Belgilangan tartibda tarif tashish xizmatlari bilan ishlashlardir.

Ushbu jarayonlarni bajarish uchun bekatning yuk xo‘jalik bo‘limida quyidagilar mavjud:

Yangi texnologiyalarni joriy etishda kompaniyalar duch keladigan eng keng tarqalgan muammo – eski uslubda ishlashga odatlangan xodimlarning qarshiligidir. Bunga sabab ularning zamonaviy texnologiyalardan qo‘rqishi, kompyuterlar bilan do‘stona munosabatda emasligi va modernizatsiya qilish uchun juda konservativligidir. Bunday vaziyatda bitta yechim bor.

Logistika boshqaruvida xodimlarning malakasi — ya’ni ishchilarning kasbiy mahorati va ishni bajarish uchun kerak bo‘lgan resurslar haqidagi bilimlarga asoslangan tushunish darajasi — muhim ahamiyatga ega. Xodimning professionalligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- resurslarni baholash;
- mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
- ish jarayonini amalga oshirish;
- o‘z-o‘zini boshqarish;
- ahloqiy qoidalarga rioya qilish;
- soha bo‘yicha zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish.

Iqtisodiyotni global raqamlashtirish quyidagi kamchiliklarga ega:

- firibgarlik xavfining oshishi — ma’lumotlarni huquqiy, texnik, jismoniy va kriptografik jihatdan to‘liq himoya qilib bo‘lmaslik natijasida yuzaga keladi;
- ishsizlikning kuchayishi — yangi kasb va ish o‘rinlari paydo bo‘lishi natijasida ba’zi mutaxassisliklar va sanoat tarmoqlari o‘z ahamiyatini yo‘qotib, orqada qolishi mumkin;

- texnologik bo'shliq – tegishli ishlanmalar va infratuzilma mavjud bo'lmasa, raqamli iqtisodiyotga to'liq kirishni ta'minlanmasligi;

- raqamli bo'linish – universal raqamlashtirish hamma uchun mavjud bo'lmasligi, ya'ni davlat xizmatlarini olish uchun shaxs internetga kirishi, tasdiqlangan hisob raqamini berishi kerak. Buning uchun hamma ham imkoniyatga ega emas. Bu farovonlik darajasiga bevosita ta'sir qilishidir;

- raqamli qullik – foydalanuvchi internetda faol muloqot qilishni boshlaganidan so'ng, u kamroq erkin bo'ladi. Siz doimiy ravishda shaxsiy ma'lumotlaringizni kiritishingiz kerak. Har bir raqamni kuzatish va insonning nimagadir e'tibori va sadoqatining o'zi tovarga aylanishi mumkin.

Kompyuterlashtirilgan tizimni qo'llash usulini "O'zbekiston temir yo'llari" AJ bekatlarida qo'llash hamda boshlang'ich sinov tariqasida katta bekatlardan boshlash nazarda tutilgani uchun "O'zbekiston temir yo'llari" AJning katta hajm bilan ishlaydigan, birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali bekatlar sonini shakllantiramiz (1-jadval).

**1-jadval**

**"O'zbekiston temir yo'llari" AJning darajaga ega bo'lgan bekatlar ro'yxati<sup>11</sup>**

T/R	Nomi	Darajaga ega bekatlar soni				Jami
		Tur darajasi yo'g'i	Birinchi	Ikkinchi	Uchinchi	
1.	"Toshkent MTU" filiali bo'yicha	3	5	6	11	25
2.	"Qo'qon MTU" filiali bo'yicha	1	2	3	8	14
3.	"Buxoro MTU" filiali bo'yicha	1	4	6	7	18
4.	"Qo'ng'iro' MTU" filiali bo'yicha	0	3	2	1	6
5.	"Qarshi MTU" filiali bo'yicha	1	0	3	5	9
6.	"Termez MTU" filiali bo'yicha	0	2	3	3	8
	JAMI:	6	16	23	35	80

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ bekatlar ro'yxati bo'yicha tur darajasi yo'q bekatlar 6 ta, birinchi darajali bekatlar 16 ta, ikkinchi darajali bekatlar 23 ta, uchinchi darajali bekatlar 35 ta bo'lib, jami 80 ta katta bekat mavjud.


80 ta bekatni raqamli hisob tizimiga ulash uchun zarur bo'lgan vositalarni ko'rib chiqish lozim.

Temir yo'l bekatlarida to'lov amallarini soddalashtirish va tezlashtirish maqsadida terminallarni joriy etish taklif etiladi.

<sup>11</sup>"O'zbekiston temir yo'llari" AJ bekatlar ro'yxati – Перечен станции internet. [https://railway.uz/ru/uslugi/gruzovye\\_perevozki/22/](https://railway.uz/ru/uslugi/gruzovye_perevozki/22/).

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibidagi mintaqaviy temir yo‘l uzellari tarkibida o‘rtacha 54–58 ta bekat mavjud bo‘lib, ularning 5–6 tasi saralash va uchastka bekatlaridir. Tajriba sifatida avvalombor tizimni yirik yuk bekatlaridagi yuk g‘aznalarida qo‘llab ko‘rish tavsiya etiladi. Ushbu qurilma orqali mablag‘ni kompyuterga o‘tkazish va hisobni to‘ldirish mumkin bo‘ladi. Temir yo‘l ichki tizimining aylanma mablag‘lari yagona hisobda jamlanib, barcha bank jarayonlari ushbu hisob orqali amalga oshiriladi. Undan tashqari to‘lov karta egasi temir yo‘l orqali avtomatik kompyuter tizimida to‘lovni qayd etish holatidan o‘tkazilib, uning temir yo‘l tashkiloti bilan hujjatlari to‘liqliligi kompyuter orqali tekshiriladi.

Bunda 80 ta asosiy bekatni harbiriga to‘lovli kartochkalar orqali hisob to‘lovlarini mijozlar tomonidan amalga oshirish uchun terminallar to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘azna bo‘lim tizimiga ulanishi kerak. Hozirda har bir to‘lov mintaqaviy temir yo‘l filiallarida joylashgan to‘lov bo‘limlari orqali amalga oshirilayapti, bu esa mijozlar uchun juda katta noqulayliklar keltirib chiqarmoqda (3-rasm).



**3-rasm. Temir yo‘l bekatlarida bog‘langan markaziy kompyuter tizimi<sup>12</sup>**

Mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida to‘lovlarni joyida amalga oshirish va masofani qisqartirish uchun joyida terminal to‘lov tizimini yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari shuni ta’kidlash kerakki, statistik ma’lumotlarga ko‘ra yoshlar o‘rta yoshlilarga nisbatan 20 foizga tezroq ishlaydi. Ammo kattalar yoshlarga nisbatan 60 foizga aniqroq va puxta ishlaydi<sup>13</sup>.

Logistika boshqaruvining sifatiga xodimlarning sifati, ijtimoiy-iqtisodiy tashqi va ichki muhit, jamoadagi psixologik iqlim, jamoada ustunlik qilinadigan manfaatlar, qadriyatlar va motivlar, jamoa dinamikasiga bog‘liq.

Dissertatsiyaning **“Logistika xizmatlarida raqamli transformatsiya istiqbollari”** nomli uchinchi bobida logistika xizmatlarida zamonaviy yangi


<sup>12</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>13</sup> Pokrovskiy A.K. Logistika boshqaruvida inson omili/.<https://studik.net/chelovecheskij-faktor-v-logisticheskome-menedzhmente/?ysclid=lbxlvog81c931025556>.

raqamli texnologiya turlarini joriy etish yo‘llarini ishlab chiqish, logistika bekatlarida raqamli iqtisodiyotni tadbiq etish orqali mijozlarga masofaviy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy qilganidan keyingi solishtirma ko‘rinishlar aniqlangan.

Agar ushbu bitta mijozni oyda ikki marta bittadan vagonida yuk tashishini inobatga olsak, bu ko‘rsatkich yiliga 48 mln. so‘mni yo‘qotish degani. Texnologiyani joriy etishdan maqsad – mijozlarga xizmat sifatini oshirish va ularni jalb qilish usullarini qo‘llashdir. Bu bitta mijoz orqasidan bo‘lsa-chi, ular soni 10 taga yetsa, bu ko‘rsatkich yillik 480 mln. so‘mga teng bo‘lishi ham mumkin.

Bundan tashqari har bir mijoz uchun to‘lov kartasi ochilishi talab qilinadi. Bu to‘lov kartalari bekatlarning soni bilan emas, balki bekatdagi mijozlar soni bilan o‘lchamga asoslangan holda ochiladi. Bitta bekatda, uning turiga qarab, bittadan elliktagacha mijozlar bo‘lishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Temir yo‘lda raqamlashtirishdan avval hujjat aylanish mexanizmi<sup>14</sup>

Bitta bekat uchun bitta mijoz yo‘qotilishi temir yo‘l uchun taxminan bitta vagonni “A” nuqtadan “B” nuqtagacha kelib turishi, uni ichkariga olib kirish va olib chiqish bilan o‘lchansa, bu ko‘rsatkich taxminan o‘rtacha 2 mln. so‘mga aylanadi. 80 ta bekat uchun bu quyidagicha hisoblanadi (2-jadval).

<sup>14</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Temir yo‘l bekatlariga terminal tizimini o‘rnatish uchun o‘rtacha sarf qilinadigan mablag‘lar<sup>15</sup>**

T/R	Nomi	1 tasini qiymati, (so‘m)	80 ta bekat uchun qiymat, (so‘m)
1.	Kompyuter	5 000 000	400 000 000
2.	Internet aloqa vositasi (bir oyga)	100 000	8 000 000
3.	Ishchi kuchi	2 000 000	160 000 000
4.	POS-terminal (o‘rtacha narxi)	1 520 000	121 600 000
	<b>Jami:</b>	<b>8 620 000</b>	<b>689 600 000</b>

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, temir yo‘lning 80 bekatida terminal to‘lov kartochkalari orqali to‘lov tizimini joriy etish uchun taxminan 689 600 000 so‘m talab qilinadi. Ushbu to‘lov kartochkasi orqali to‘lov tizimi joriy qilinishi mijozlar ishonchini ortishi va ularga servis xizmatini samarali ko‘rsatilishini ta‘minlaydi.

Elektron hujjat aylanishiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu raqamli logistikaning eng muhim elementidir. Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, bu xarajatlar va yetkazib berish muddatlarini 20 – 40 foizgacha qisqartirish, mijozlar ham, jo‘natuvchilar ham yuk oluvchilar bilan munosabatlarni o‘rnatishning hayot siklining barcha bosqichlarida vaqt yo‘qotishlarini minimallashtirish imkonini beradi.

Bunda transformatsiya jarayonidagi 4 vaziyat, ya‘ni:

1. Logistika sohasida axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalaridan foydalanilgan holda ko‘rsatilayotgan xizmatlar narxini pasaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish;

2. Raqamli platformalarni ishlab chiqqan holda faoliyat chegaralarini kengaytirish vayuklarni etkazib berish tezligini oshirish;

3. Robototexnik qurilmalarni qo‘llagan holda xizmat ko‘rsatishning barcha bosqichlarida raqamli vositalarni joriy etish;

4. Bozorning turli ishtirokchilari tomonidan omborlar va transport vositalarini taqsimlashni amaliyotga joriy etish orqali bozorning samaradorligini oshirish ishlarining bajarilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, yuklarni aylanma hujjatlaridan birini raqamli iqtisodiyotga o‘tkazish raqamli iqtisodiyot uchun qo‘yilgan yana bitta qadamlardan biri bo‘ladi.

Jadvalga asosan butun bir tizimni mijozlar bilan pul tizim aylanmasini nazorat qilish va ish jarayonini yaxshilash uchun jami o‘rtacha 600 mln. so‘m miqdorda mablag‘ talab qilinadi (3-jadval).

Bu raqamlashtirish uchun ketadigan xarajat miqdoridir.

Endi odatiy usuldagi bitta mijoz uchun xizmatlar narxini olsak,

- 10 kun uchun 1 pachka (500 dona) qog‘oz – 133 000 so‘m<sup>16</sup>;

- mintaqaviy temir yo‘l uzeli unitar korxonasidagi qo‘shimcha hisoblash uchun 2 ta xodim (muhandis) oyligi – 5000 000 so‘mdan har biri;

<sup>15</sup> Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>16</sup> Qog‘ozning tannarxi.

- boshqarmada qo‘shimcha hisoblash uchun 2 ta xodim (muhandis) oyligi – 7 000 000 so‘mdan har biri;

- to‘ldirish uchun ruchka – oyiga 4 tadan har bir xodim uchun – ruchka narxi 1000 so‘mdan donasi;

- xodimlar soni ko‘pligi uchun qo‘shimcha bittadan lampochka 1 kunda yoqilishi yuridik kompaniyalar uchun 1kVT/soat – 600 so‘mdan (kuniga 4 kVt/soat kishi boshiga)<sup>17</sup>.

**3-jadval**

**Temir yo‘l bekatlarida raqamli platformani ishga tushirish uchun o‘rtacha sarf qilinadigan mablag‘lar<sup>18</sup>**

T/R	Nomi	1 donasining qiymati, (so‘m)	80 ta bekat uchun qiymat, (so‘m)
1.	Ishlash dasturi		
	A) bekatlar uchun	10 000 000	150 000 000
	B) Mintaqaviy temir yo‘l uzeli filiali bo‘limi uchun	10 000 000	20 000 000
	C) Boshqarma uchun	10 000 000	30 000 000
2.	Ishchi kuchi	5 000 000	400 000 000
	<b>Jami:</b>	<b>35 000 000</b>	<b>600 000 000</b>

Bitta mijoz uchun sarf qilinadigan bir yillik pul miqdori 292 446 000 so‘mni tashkil etadi. Agar boshqa mijozlar uchun ham xarajatlarni qo‘shsak, bundan ham yuqori narxni olishimiz mumkin deb o‘ylaymiz (4-jadval).

**4-jadval**

**Raqamli platformagacha temir yo‘l bekatida bir mijoz uchun bir yilda sarf qilinadigan mablag‘lar<sup>19</sup>**

Tar-tib raqami	Nomi	Xarajat ko‘rsatkichi	Yillik xarajat (so‘m)
1.	Qog‘oz blanka	133 000 so‘m (10 kunga)	798 000 so‘m
2.	Mintaqaviy temir yo‘l uzeli xodimi 2 kishi	10 000 000 so‘m (o‘rtacha)	120 000 000 so‘m
3.	Boshqarma xodimi 2 kishi	14 000 000 so‘m (o‘rtacha)	168 000 000 so‘m
4.	Ruchka	16 000 so‘m	192 000 so‘m
5.	Lampochka	4kVT/soat (kuniga bitta xodimga)	3 456 000 so‘m
	<b>Jami</b>		<b>292 446 000 so‘m</b>

O‘zini qoplash hisobiga qarajak, bunda:

$\Sigma=600\,000\,000+689\,600\,000=1\,289\,600\,000$  so‘m jami raqamlashtirish uchun ketadigan xarajatlarni bo‘lib,

<sup>17</sup> Svet va gazning yangi tariflari tasdiqlandi./ Gaz zapravkalaridagi narxlarga cheklov o‘rnatildi <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/16/tariffs/>.

<sup>18</sup>Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>19</sup> Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$\Sigma=600\,000\,000+689\,600\,000/292\,446\,000=4,4$  yilni tashkil etadi.

Demak, 4,4 yil ichida raqamlashtirish tizimiga to'liq o'tish imkoniyati mavjud bo'lib, bu davr davomida yillik xarajatlarni qoplash muddati aniqlanadi.

Vagonlarni o'z egalariga va belgilangan manzillariga yetkazish jarayonini va buyurtmachigacha yetkazilishini nazorat qilish maqsadida, yirik bekatlarda katta monitor bo'lishi hamda ushbu monitor internet aloqa vositasiga ulanishi zarur. Ushbu ulangan internet vositasi orqali ushbu monitorida kuzatuv platforma funksiyasi joriy etilishi hamda buyurtmachi tomonidan maxsus QR kod yoki parol orqali o'z vagoni qayerda yurganini tekshirib ko'rish imkoniyatini beradi. Ushbu platformaning yaratilishi vagonlarni o'z vaqtida shoxobcha kirish va chiqarish jarayonini nazorat qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, buyurtmachiga xizmat ko'rsatishda uning vagoniga qo'shimcha tarzda GPS kuzatuv tizimini ulab qo'ygan holda vagon harakatlanish holatini kuzatish imkonini yaratib berish zarur.

